




DENMARK

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SCIENCE,
EDUCATION AND TECHNOLOGY
INTERNATIONAL ONLINE CONFERENCE**

WWW.INCOP.ORG



Date: 23rd May-2025

“Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology”. Collection of scientific papers on materials of the international scientific-practical conference 23.05.2025, Pub. "ICP", Copenhagen, Denmark, 138 p.

Editor:

Yogendra Mishra

The Mads Clausen Institute,
University of Southern Denmark,
Sønderborg, Denmark.

The collection of published scientific papers is a scientific and practical publication, which includes scientific articles from students, teachers, candidates of sciences, doctoral students, and independent researchers. The articles contain a study that reflects the processes and changes in the structure of modern science. The collection of scientific articles is intended for students, doctoral students, teachers, researchers, practitioners, and those interested in the development trends of modern science.

All materials contained in the book, published in the author's version. The editors do not make adjustments in scientific articles. Responsibility for the information published in the materials on display, are the authors.

The electronic version of the collection is available online scientific publishing center «ICP" Site center: incop.org



Date: 23rd May-2025

ERKIN VOHIDOV IJODIDA MILLIYLIK IFODASI

Davronova Shohsanam G‘aybulloyevna

filologiya fanlari doktori (DSc), BuxDU professori

Tayanch tushunchalar. She‘riyat, milliylik ifodasi, Erkin Vohidov ijodi, poetik ifoda, badiiy talqin, ijodiylik, lirik qahramon.

Annotatsiya. Maqolada Erkin iste‘dodli o‘zbek shoiri Erkin Vohidov ijodida milliy ruh talqini masalasi to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Ijodkor she‘riyatining milliy o‘ziga xosligi, insoniy qadriyatlar va lirik qahramon tuyg‘ulari ifodasi tahlillar asosida ochib berilgan.

O‘zbek she‘riyatining taniqli vakillaridan biri, milliy adabiyotimiz xazinasini betakror namunalar bilan boyitishga xizmat qilgan ijodkor Erkin Vohidov she‘riyati mavzular xilma-xilligi, g‘oyaviy va badiiy jihatdan serqirraligi bilan alohida ajralib turadi. Milliy ruh, ma‘naviy qadriyatlar ifodasi shoir she‘rlarining o‘ziga xosligini ta‘min etgan.

Ijodkor asarlarining lirik qahramoni o‘ziga xos tabiatli, o‘zbekona tafakkur va xarakterga ega bo‘lgan insondir. U o‘zbeklarga xos fikrlaydi, xulosa chiqaradi, o‘zbek kishisining badiiy olamini namoyon etib turadi. Uning qiziqishlari, o‘y-fikrlari, yashash tarzi, o‘zbek xalqining ma‘naviy qadriyatlari, urf-odat va an‘analari bilan mustahkam bog‘langan. Bularning bari lirik qahramon kechinmalari ifodasida yaqqol aks etib turadi. Chindan ham “Erkin Vohidovning har bir she‘rida davrning yorqin manzarasi, xalqning o‘lmas psixologisi, millatning ulug‘vor qiyofasi to‘la aks etadi”¹⁷.

Shoirning lirik qahramoni vatanparvar, xalqparvar insondir. U o‘z yurti, o‘zbek ekanligi bilan faxrlanadi. Qalbida yurtiga, muqaddas zamini va tabarruk eliga yuksak ehtiromini namoyon etadi.

Qayga bormay, boshda do‘ppim,

G‘oz yurarman gerdayib,

Olam uzra nomi ketgan

O‘zbekiston, o‘zbekim.

Ushbu satrlarda o‘zbeklarning shuhrati olamga taralganligi iftixor bilan ta‘kidlanadi. Lirik qahramonning boshiga do‘ppi kiyib mag‘rur yurishi bilan bog‘liq e‘tiroflari milliy libosdagi o‘zbek kishisining qiyofasini yorqin tasavvur qilishga imkon beradi.

Shoir she‘rlarining yetakchi mavzularidan biri milliy istiqlool, xalqning ulug‘ligi, ulug‘ kunlarga yetish yo‘lidagi sharaflı kechmishidir. Uning she‘rlarida milliylik ana shunday yorug‘ kunlarga shukronalik tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashgandir. Jumladan, ijodkorning “Turkiston bir, vatan bir”, “Shukurkim, keldi istiqlool”, “Og‘riqli savollar”, “Kuzatish” kabi she‘rlarida aks ettirilgan mazmun-mohiyat ulug‘ el va uning erkin va

¹⁷ Солижонов Й. Шоир ижодида миллий озошлик мавзуси. / То қуёш сочгайки нур: Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижоди замондошлари нигоҳида. – Тошкент: O‘zbekiston, 2018. – Б. 479 б.

Date: 23rd May-2025

farovon hayot qurish yo‘lidagi intilishlari, umidvorligi, sabr-matnatini e’tirof etishga qaratilgan. Misol sifatida quyidagi satrlarni keltirish mumkin:

Shukurkim, keldi istiqloq,
Umidim rost qil, Oллоhim,
Ki, shoyad beqafas bulbul
Kabi sohib chaman bo‘ldim.

Ishonchim bor, Vatan, bir kun
Kellar chin nurli davroning,
Degayman shunda chin Erkin,
Chin inson qaytadan bo‘ldim.

Shoir she’rlarida o‘zbek xalqining hayot tarzi, muqaddas deb bilgan tushunchalari ham badiiy talqin etiladi. Bu tushunchalar zamirida xalqning ko‘p asrlik urf-odat va an’analari, qadriyatlar, mehnat-u mashaqqatlari mujassamligi ayonlashadi. Masalan, shoirning “Bir burda non” she’rida nonning azizligi, ushbu tushunchaning mohiyatida xalqning og‘ir, mashaqqatli kunlari, ko‘rgan qiyinchiliklari aks etib turishi bilan bog‘liq qarashlarning ifoda etilganligini kuzatish mumkin. She’r matni lirik qahramon guvoh bo‘lgan voqea tafsiloti va uning mulohazalari asosida shakllantirilgan. Ya’ni she’rda aytilishicha, bir mo‘ysafidning yo‘l uzra yotgan bir burda nonni asta qo‘liga olib o‘payotgani jarayonini suratga tushirgan sayyoh, chet mamlakatlar ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonda ochlik hukm surmoqda deb xabar tarqatadi. Ammo qayd etilicha, o‘sha chol kechagina yetti pud gurunchdan osh damlab, yetmish yoshlik yubileyini nishonlagan edi.

Kim rad etar surat dalolatini,
Ishonmay, ne qilsin bexabar olam?
O‘zbek deb atalgan xalq odatini
Kayoqdan ham bilsin bexabar olam?

Demakki, u ochlikdan, muhtojlikdan emas, balki nonni qadrlaganidan, uni muqaddas deb bilganidan bunday odatga amal qilardi. Shu tariqa she’rda o‘zbeklarning boshdan kechirgan kechmishini unutmasligi, tarix va ajdodlar sabog‘idan tarbiya olganligi badiiy asoslandi, bu orqali kelajak avlodga shukronalik tuyg‘ularini shakllantirish maqsadi ko‘zda tutiladi:

Shukrkim, u kunlar olisda qoldi,
Shukrkim, Vatanim ma’mur va obod.
Shukrkim, bu yurtda mening avlodim
Muhtojlikni ko‘rgan eng so‘nggi avlod.

“Tilak” nomli she’rida esa ijodkor saxiylik, himmatlilik fazilatlarini ulug‘laydi. Bunday xislatlar o‘zbek xalqiga xos buyuklik belgisidir.

Saxiylikni odat qilgan bo‘lsa kim,
Elga sochgan bo‘lsa borini doim,
Himmati bor bo‘la turib, ilohim,



Date: 23rd May-2025

Qo‘lidan davlati ketmasin uning.
O‘zbek millatiga xos ruhiyat tasviri “Tandir xaqida ertak” she’rida ham yaqqol aks etgan.

Mo‘‘jaz hovli,
Pastgina devol,
Pastakkina tandiri bilan:
Yashar edi kichkina bir chol
Kichkina bir kampiri bilan.
Yashardilar kamtar va halol,
Osoyishta taqdiri bilan.
Pichoq charxlar ermak uchun chol,
Kampiri band xamiri bilan.

Eng avvalo, shoirning bayon uslubiga diqqat qaratadigan bo‘lsak, xalq ertaklariga xos xususiyatlarni kuzatamiz. Qolaversa, kichkina bo‘lib qolgan chol va kampir va ularning yashash tarzi tasviri orqali oddiy, mehnatkash, halol, sabr-matonatli o‘zbek qariyalarining badiiy olamini aks ettirilganligi ko‘zga tashlanadi. Pastgina devol, pastakkina tandir, pichoq charxlayotgan chol, xamir qorish bilan band kampir tasvirlari milliy hayot tarzimizni ko‘z o‘ngimizda namoyon etadi. Eng muhimi, bu ikki qahramon o‘ziga xos odatlari, masalan, tandirga o‘rganib qolganligi bilangina milliy xarakter sifatida gavdalanmadi. Bunday tandir, aslida she’rga badiiy bo‘yoq, joziba, milliy manzara tasvirini baxsh etishga xizmat qiladi. Ammo bunda eng muhimi, bu ikki qahramonda o‘zbek millatiga xos bo‘lgan qanoatlilik, sabr-bardosh, samimiyat, shukronalik xislatlari va tuyg‘ularining mujassam etilganligi ko‘zga tashlanadi. Asarda milliy manzara, milliy qiyofa va milliy ruhiyat tasvirlari o‘zaro uyg‘un holda o‘zbek qariyalarining badiiy olamini gavdalantirishga xizmat qiladi.

Tandir bitdi
Va o‘sha-o‘sha
Tong yorishar chog‘ida har kun
Osmon bo‘yi tomlardan osha
Ko‘kka o‘rlar ingichka tutun.
O‘sha-o‘sha, bizga beshikdan
Tanish xush bo‘y taralar har yon.
Tongda har bir ochiq eshikdan
Rizqdek kirar bir juft issiq non.

Ma‘lumki, o‘zbek xalqiga xos odatlardan biri hovlilar eshigi har tongda, barvaqt ochib qo‘yiladi va bu orqali shu xonadonga rizq, baraka kirishi kutiladi. O‘zbeklarga xos bo‘lgan bunday tasavvurlar she’rda tandir bilan bog‘liq mojarolar atrofida aks ettiriladi. She’rda ishlatilgan so‘zlarda ham tomlar, ingichka tutun, beshik, tanish bo‘y, ochiq eshik, rizq, bir juft issiq non poetik detallari o‘zbeklar hayotining milliy manzarasini ifoda etishga xizmat qiladi.



Date: 23rd May-2025

Umuman olganda, shoir Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruh va ma'naviy qadriyatlarga e'tibor masalasi teran yoritilgan. Shoirning lirik qahramoni milliy o'ziga xosligini yorqin namoyon etadi. Ijodkor she'rlarida mehnatkash, jafokash, saxiy, mehmondo'st o'zbek xalqi ulug'lanadi. Uning o'lmas nomi, o'chmas tarixi, muqaddas qadriyatlari ta'rif etiladi. Milliylik ifodasi ijodkor asarlarining hayotiyligi, ta'sirchanligi hamda ko'lamdorligi ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Мўминова Д., Мухиддинов Ў. Шоир дунёси. / Адабий портретлар: Туроб Тўла, Раҳмат Файзий, Одил Ёқубов Шоислом Шомухаммедов, Эркин Воҳидов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 231-58.
2. То қуёш сочгайки нур: Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижоди замондошлари нигоҳида. – Тошкент: O'zbekiston, 2018. – 512 б
3. Davronova S. THE ORIGINALITY OF THE ARTISTIC IMAGE AND THE TRUTH OF LIFE IN THE NOVELS OF ULUGBEK KHAMDAM //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 49-53.
4. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЪАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.
5. G'aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of "The Missing Motherland") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
6. Давронова Ш. ҚИССАДА БАДИИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ: Шохсанам Давронова БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф. ф. доктори //Научно-практическая конференция. – 2021.
7. Shokhsanam Davronova 2021. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. (Feb. 2021), 679–683.
8. Davronova S. Eastern and western literary tradition in the modern uzbek novels //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9). – С. 33-34.
9. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.
10. DAVRONOVA S. TARİHİ ROMANDA MUTASAVVIF BİLGİN SİMASI //DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I. – С. 108.
11. Shokhsanam D. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2016. – Т. 4. – №. 5. – С. 33-34.
12. Давронова Ш. Литературное влияние и творчество //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 1. – №. 2 (59). – С. 40-46.



Date: 23rd May-2025

13. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016. – 2016.

14. Davronova S. КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА “ОЛИСДАГИ УРУШНИНГ АКС-САДОСИ”(«ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ»)) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.

15. Davronova S. Mythology in intellectual novels //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 4. – С. 40-43.

16. Gaybulloeva D. S., Bakhtiyorova N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL "FATHER.

17. Davronova S., Kandimova I. CHARACTER CREATION SKILLS OF LUKMON BORIKHAN //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 30-34.

18. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 629-634.

19. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕХҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. *IMRAS*, 7(1), 779-783.

20. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕХҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(24), 22-25.

21. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕХҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРИНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(22), 66-70.

22. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда деҳқонлар ҳаётининг бадиий талқини. In *E Conference Zone* (pp. 71-73).

23. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – С. 47-49.

24. TORAYEVA, L. (2023). ЎРИМ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ОБРАЗЛАР ТАРКИБИ ВА БАДИИЙ-КОМПОЗИЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 42(42).

25. Omonovna, T. R. L. (2024). A Hymn of Divine Ideas in the Wisdoms of Yassavi. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 34-39.

26. Omonovna, T. L. (2024). A PECULIAR EXPRESSION OF PEASANT APPLAUSE IN FOLKLORE. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 2(20), 199-204.

27. To'rayeva, L. (2024). O'ZBEK XALQ O'YINLARIDA "BOBODEHQON" KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 2(20), 234-241.



Date: 23rd May-2025

28. To'rayeva, L. (2024, May). Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasida hayotsevarlik g'oyalari. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 4, pp. 250-259).
29. Azimov, Y., To'xsanov, Q., Adizov, B., Sharipova, M., Hojiyeva, N., & Rajabova, G. Z. (2024). Statistical analysis of thrift and ecological education concepts in elementary school students. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 587, p. 02020). EDP Sciences.
30. Yuldasheva, D. N., Khojiev, N. K., & Yusupova, D. Y. (2021). Fruit vocabulary is an integral part of the vocabulary of the folk language. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktika*, 1(2).
31. Hajiyeva, N., & Mutalibova, S. (2025). COMPARATIVE ANALYSIS OF FRUIT NAMES IN UZBEK AND TURKISH PROVERBS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 732-735.
32. Hayotovna, H. N. COMPARATIVE ANALYSIS OF FRUIT NAMES IN UZBEK AND TURKISH PROVERBS.
33. Hayotovna, H. N. (2025). "BOBURNOMA" ASARIDA FITONIMLARNING QO'LLANILISHI. *Modern World Education: New Age Problems–New solutions*, 2(3), 1-3.



Date: 23rd May-2025

ARTICLES:	
Ikromova Sitara Akbarovna PSIXOLOGIYA FANINING IJTIMOIIY TABAQALANISH	3
Ikromova Sitara Akbarovna TRADITSION PSIXOLOGIYAGA QARSHI YONDASHUVLAR, MARKSISTIK TA'SIR, PAULO FREIRE VA BOSHQALAR)	11
Ikromova Sitara Akbarovna SHAXSNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA MADANIY, TARIXIY HAMDA IJTIMOIIY KONTEKSTNING O'RNI	18
Ikromova Sitara Akbarovna SHAXSIY O'SISHNI QO'LLAB-QUVVATLOVCHI PSIXOLOGIK TRENINGLARNING TURLARI VA METODLARI	26
Ikromova Sitara Akbarovna PSIXOLOGIK TRENINGLARDA GURUH DINAMIKASI VA INTERAKTIV METODLARNING AHAMIYATI	33
Ikromova Sitara Akbarovna KASBIY FAOLIYATDA PSIXOLOGIK TRENINGLARDAN FOYDALANISH: O'QITUVCHILAR, SHIFOKORLAR VA RAHBARLAR MISOLIDA	40
Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna SHARNOMA HUJJATINING O'RNI	47
Abdullayeva Shohsanam Zokirjon qizi INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISH METODIKASI: ZAMONAVIIY YONDASHUVLAR VA METODLAR	52
Sodiqova Yodgoroy Bahromjon qizi EFFECTIVE METHODS FOR TEACHING ENGLISH LANGUAGE: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	56
Rahmonova Mashxuraxon Gulomjonovna BIOLOGIYA TA'LIMIDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING XALQARO TAJRIBA ASOSIDAGI YECHIMLARI	60
Safarova Z.T Jurayeva S.U THE INFLUENCE OF THE CYBERPUNK GENRE ON MODERN SCIENCE FICTION LITERATURE	64
D. M.Kobulova OF ART THERAPY METHODS IN EARLY SCHOOL STUDENTS	71
Aminov Suxrob Alimardon o'g'li Kalandarov Ilyos Ibodullayevich THE POSSIBILITIES AND PROBLEMS OF CLOUD TECHNOLOGIES IN ORGANIZING DISTANCE LEARNING	74
A.R.Rajabov ONLINE KURSLAR UCHUN MOBIL ILOVALARNI ISHLAB CHIQISH	78
A.R.Rajabov ONLINE O'QUV KURSLARGA AI SUNIY INTELEKTNI INTEGRATSIYA QILIB TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH	85
Тўраева Лайло Омоновна “ШАШҚАТОР” ЖАНРИНИНГ ИСРОИЛ СУБҲОН ИЖОДИДАГИ ЯНГИЧА	92

Date: 23rd May-2025

ТАҶИҚИИ ХУСУСИЯТЛАРИ	
Davronova Shohsanam G‘aybulloyevna ERKIN VOHIDOV IJODIDA MILLIYLIK IFODASI	98
Hojiyeva Nigina Hayotovna Mutalibova Saodat Olmas qizi ABOUT FRUIT NAMES ADOPTED FROM PERSIAN	104
Hojiyeva Nigina Hayotovna Ashurova Asalkhon Barot qizi ETYMOLOGY OF THE LEXEM “PEACH”	113
Kalmuratova Raziya Seytmuratovna GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI VA UNING O‘ZBEKISTON HUDUDIGA TA’SIRI	121
Oripova Ra’no Tolibovna POLITEXNIKUM O‘QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA “BIZNES ASOSLARI” FANINING O‘RNI	126
Ibodullayeva Zubayda Sherzodovna INTEGRATION OF THE STEAM EDUCATION CONCEPT INTO SCHOOL PRACTICE	130

